# ASARLARDA QO‘LLANGAN O‘XSHATISHLAR
## (5-, 6-sinf darsliklari asosida)

| O‘xshatishlar | O‘xshatilgan obraz | Asar nomi | Muallif |
|---|---|---|---|
| “Afsonaviy hayvonlar”ni eslatuvchi qumuyumlari uchraydigan asar | ----- | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Bolta urilgan daraxtdek ohista quladi” deya ta’riflangan obraz | **kichkina shahzoda** | “Kichkina shahzoda” | A.D.S.Ekzyuperi |
| “Chayonday zahri kelib” deya ta’riflangan obraz | **xo‘jayin** | “Susambil” | ertak |
| “Dokadek oqarib, turgan joyida shamdek qotib qolgan” obraz | **Kichkina Bahodir** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Go‘dak bola”ga o‘xshatilgan obraz | **kichkina shahzoda** | “Kichkina shahzoda” | A.D.S.Ekzyuperi |
| “Gul-gul yashnab ketdi” deya ta’riflangan obraz | **kichkina shahzoda** | “Kichkina shahzoda” | A.D.S.Ekzyuperi |
| “Jonsizlarga jon berdi” deya ta’riflangan obraz | **Oygul** | “Oygul bilan Baxtiyor” | H.Olimjon |
| “Kasal odam”ga o‘xshab sekin-sekin narvondan pastga tushgan” obraz | **fanorchi ota** | “Fanorchi ota” | Oybek |
| “Kattalardan dashnom eshitishdan qo‘rqqan bola”ga o‘xshatilgan obraz | **Navoiy** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Kunduz kunlari “garang”day dovdirab yuradigan” obraz | **Roqiyabibi** | “Mening o‘g‘rigina bolam” | G‘.G‘ulom |
| “Murda ustiga yopirilgan o‘limtik qushlar”ga o‘xshatilgan obrazlar | **Abdulatif, Sulton Muhammad, Abulqosim** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Nuqtaday qush” | **to‘rg‘ay** | “To‘rg‘ay” | Mirtemir |
| “O‘limtik qushlar”ga o‘xshatilgan obrazlar | **Abdulatif, Sulton Muhammad, Abulqosim** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Oddiy odamlar taqdiriga befarq bag‘ritosh” deya ta’riflangan podshoh | **Jurjon podshohi** | “Oygul bilan Baxtiyor” | H.Olimjon |
| “Ona chumchuq”qa o‘xshatilgan obraz | **qorabuvi-Roqiyabibi** | “Mening o‘g‘rigina bolam” | G‘.G‘ulom |
| “Qabila oqsoqoli”ga o‘xshatilgan obraz | **Yanguli** | “Hellados” | N.Dumbadze |
| “Qimmatbaho xazinadek” deya ta’riflangan narsa | **qo‘zichoq rasmi** | “Kichkina shahzoda” | A.D.S.Ekzyuperi |
| “Qo‘ng‘iroqdek ovozli” obraz | **Navoiy** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Rangi o‘chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko‘zlari yaltirab” qolgan obraz | **Bo‘rilar podshohi** | “Susambil” | ertak |
| “Sharobxo‘r” deya ta’riflangan obraz | **Abulqosim** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Tarrakdek qotib uxlagan” obraz | **Turg‘un** | “Uloqda” | A.Qodiriy |
| “Yevropada bomba otganday osmonga qarab o‘q uzish” uchraydigan asar | ----- | “Gulliverning sayohatlari” | Jonatan Svift |
| “Yurakli, kattalardan ko‘p tortinmaydigan, sog‘lom shijoatli bola” deb ta’riflangan obraz | **Husayn Boyqaro** | “Zulmat ichra nur” | M.Osim |
| “Yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan” deya ta’riflangan obrazlar | **to‘ng‘ich botir, o‘rtancha botir, kenja botir** | “Uch og‘a-ini botirlar” | ertak |
| Bolaning ko‘nglini “poshsho”ga va “tilla”ga o‘xshatish | ----- | “Bolaning ko‘ngli poshsho” | Oybek |
| Bulbulning ovozini “chinni qo‘ng‘iroqlarning jarangi”ga o‘xshatish uchraydigan asra | ----- | “Bulbul” | H.K.Andersen |
| Havoni “sof boda” deb ta’riflash | ----- | “Yurganmisiz birga oy bilan” she’rida | U.Nosir |
| Itlarning kattaligini “eshak”ka o‘xshatish | ----- | “Mening o‘g‘rigina bolam” | G‘.G‘ulom |
| Nonning kattaligi “miltiqning o‘qi”ga o‘xshatilgan asar | ----- | “Gulliverning sayohatlari” | Jonatan Svift |
| Qamishlarni “Rum lashkari”ga o‘xshatish | ----- | “Iskandar Zulqarnayn” | M.Shayxzoda |
| Qirrador qoyalarni “novvot parchasi”ga o‘xshatish | ----- | “Dunyoning ishlari” | O‘.Hoshimov |
| Qurbaqaning ovozini “Ibodatxona qo‘ng‘iroqlarining tovushi”ga o‘xshatish | ----- | “Bulbul” | H.K.Andersen |
| Teatr dekoratsiyasini eslatuvchi shahar uchraydigan asar | ----- | “Gulliverning sayohatlari” | Jonatan Svift |
| To‘pponchani “ichi kovak ustun” deya ta’riflash uchraydigan asar | ----- | “Gulliverning sayohatlari” | Jonatan Svift |
| Turna qanotiday kattalikda go‘sht uchraydigan asar | ----- | “Gulliverning sayohatlari” | Jonatan Svift |
| Yelkasining bukikligi “obkash”ga o‘xshatilgan obraz | **fanorchi ota** | “Fanorchi ota” | Oybek |
| Yugurishi “shamol”ga o‘xshatilgan obraz | **Muso** | “Bolaning ko‘ngli poshsho” | Oybek |
| Yuragining urishi “yarador qush”ga o‘xshatilgan obraz | **kichkina shahzoda** | “Kichkina shahzoda” | A.D.S.Ekzyuperi |

**Rustamjon O‘RINOV**